

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

NURTAYEV SAYFULLO XUSANOVICH

**INGLIZ OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI
NEOLOGIZMLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH
MUAMMOLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Nurtayev Sayfullo Xusanovich

Ingliz ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari..... 3

Нуртаев Сайфулло Хусанович

Проблемы перевода на узбекский язык неологизмов в английских средствах массовой информации..... 23

Sayfullo Khusanovich Nurtaev

Problems of Translation of Neologisms in the English Media to the Uzbek Language..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

NURTAYEV SAYFULLO XUSANOVICH

**INGLIZ OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI
NEOLOGIZMLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH
MUAMMOLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil991 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muratova Elmira Denisovna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Teshabayeva Dilfuza Mo'minovna
filologiya fanlari doktori, professor

Djumabayeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «22» avgust soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «7» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil «7» avgust dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi)



Gus

G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B.

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

J.A.

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyatida barcha millat vakillari muloqot jarayonini idrok etish, tilning shakllanishida madaniyatlararo muloqotni o'rganib, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni turli xalq vakillarining o'zaro fikr almashinuviga to'sqinlik qilayotgan omillar: ommaviy axborot vositalari terminlari, neologizmlarning mahalliy tilga ta'siri doirasini doimo chuqur o'rganib, aniqlashga harakat qilib boradilar. Barcha xalqlar o'z milliy tili sofligini saqlashga jiddiy e'tibor qaratadilar. Etnolingvistik va milliy muloqot jarayonining uzluksiz rivojlanib borish, barobarida so'z semantikasi, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarda tilning ta'sirini hisobga olib, xalqaro fikr almashishni tarjimada to'laqonli aks ettirish, iqtisodiy jarayonga putur yetkazmaslik, millatlararo bir-birini to'g'ri anglash, xalqaro munosabatlarni semantik to'g'ri tashkil etish tarjimashunoslik sohasining muhim va dolzarb masalalaridan biridir.

Biz chet el ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlarni o'rganish va yaqindan tushunish orqali o'z tilimizni ko'proq idrok etamiz va chuqur o'rganamiz hamda jadal rivojlanish natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi tushunchalarni o'rganish orqali zamonaviy dunyo sahnasida bo'layotgan barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib boramiz.

Ayni damda chet tillarini o'rganish va o'rgatishda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda muhim, chunki OAV (Ommaviy axborot vositalari) orqali ma'lumot olish bilan birgalikda zamonaviy tilning o'zgarib borishi va qo'llanilayotgan *vokabulyardan* boxabar bo'lishimiz lozim. Shu bilan birga OAVda qo'llanilayotgan so'z va atamalarni eshitib, o'z so'z boyligimizni oshirib borishgina emas, balki milliy tilni yo'qotmaslikka, yangi terminlar ma'nosini to'g'ri o'qish va qo'llash mas'uliyati yuklatiladi.

Qonun hujjatlarni qabul qilish orqali davlatimizda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshirish, chet davlatlar bilan munosabatlarni yanada yaxshilash dolzarb masalalardan biri bo'lib turganligi bizni sohaga kattaroq e'tibor qaratishimizni talab etadi.

Jahon tilshunosligida dunyo xalqlarining fan va texnika rivojidadagi o'zgarishlar va ayni paytda, har bir millat o'z ona tilining shakllanishida neologizmlarning ta'sir doirasini kundalik statistik ma'lumotlarga doimiy ega ekanligi, yangiliklardan boxabar bo'lib turishlari, o'z ona tilining sofligini saqlash borasida izchil izlanishlar olib borishi, doimiy kuzatuvda bo'lishlarini talab etadi. Ulkan ommaviy axborot markazida yashayotgan inson omili, axborot ta'sirida neologizmlarning ona tiliga shiddat bilan kirib kelishi, yangi paydo bo'layotgan umumbashariy so'zlar – neologizmlarni o'rganishga, tilga ta'sir kuchi paydo bo'layotganini sohalarda tadqiq etishga, ularning doimiy miqdorini aniqlab borishga, milliy til ruhini yo'qotmaslik, uning nufuzini oshirishga doimiy e'tibor berib borish vazifasi har bir inson va tarjimonning burchi, degan fikrdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2012 – yildagi «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»¹² PQ-1875-son³⁴ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 352-son 31.12.2013 «Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi⁵⁶, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari⁷⁸, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa sohaga doir me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yangiliklardan boxabar bo‘lish va yangi atamalarni tushunish maqsadida neologiya sohasida ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, yevropalik olimlardan V. Adams⁹, J.Ayto¹⁰, D.Crystal¹¹, C.Cotter¹², M.Conboy¹³, rus olimlaridan V.A. Kozireva¹⁴ va V.D.Chernyak¹⁵, B.N.Golovin¹⁶, N.Z.Kotelova¹⁷ neologizmlarga o‘z e‘tiborini

¹<https://uzswlu.uz/media/>

²<https://lex.uz/docs/2126032>

³<https://uzswlu.uz/media/>

⁴<https://lex.uz/docs/2126032>

⁵<https://lex.uz/docs/3171590>

⁶талабаларни касбий инновацион фаолиятга тайёрлаш Мамажанов Икрамжон Ганижанович
<https://elibrary.ru/item.asp?id=48401651>

⁷талабаларни касбий инновацион фаолиятга тайёрлаш Мамажанов Икрамжон Ганижанович
<https://elibrary.ru/item.asp?id=48401651>

⁸<https://lex.uz/docs/3765586>

⁹Adams V. An Introduction to Modern English Word Formation. – London: Longman, 1987. – 240 p.

¹⁰Ayto J. The Oxford Dictionary of Slang/J. Ayto. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 482 p.

¹¹Crystal, D. 2007. *Words, Words, Words*. Oxford: Oxford University Press.

¹²Cotter, C. 2010. *News Talk: Investigating the Language of Journalism*. Cambridge: Cambridge University Press.

¹³Conboy, M. 2010. *The Language of Newspapers: Socio-Historical Perspectives*. London: Continuum.

¹⁴Козырева В.А. и В.Д. Черняк «Русская лексикография» (2004).

¹⁵Черняк В. Д. Современная языковая ситуация и речевая культура: учебное пособие - М.: Флинта – Наука, 2012. – 181 с. (в соавторстве с В. А. Козыревым).

¹⁶Головин Б.Н. Введение в языкознание - М.: Просвещение, 1977. – 311с.

¹⁷Котелова Н. З. Первый опыт лексикографического описания русских неологизмов // Новые слова и словари новых слов – Л., 1978.

qaratib o'tishgan bo'lib, N.Z.Kotelova aynan neologizmlarni tadqiq etgan. O'zbek olimlaridan bu mavzuga O. Jumaniyozov¹⁸, P.J.Nazarov "O'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar xususida" tadqiqotida¹⁹, Sh.K.Abduraimova²⁰, U.Ya.Qo'ziyev²¹, H.Dadaboyevlar²² o'z e'tiborini qaratgan bo'lib, bu mavzu bizda unchalik ko'p o'rganilmagan va shu sababli bu mavzuni yaqindan tadqiq etish orqali neologizmlarni tarjima qilish jarayonida duch kelish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning yechimini topishga astoyidil harakat qilamiz. Tadqiqotimizda 2000-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan davr o'rganilgan.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari e'tirof etilgan bir qator o'zbek hamda jahon tilshunoslarining ishlari tahlil etildi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, ingliz va o'zbek tillaridagi OAV neologizmlari tadqiqi chog'ishtirma usulda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot va ilmiy izlanish ishlari rejasining²³ № ITD-1, A-1-209 «Madaniyatlararo va kommunikativ ilmiy yondashuv asnosida magistratura mutaxassisligi²⁴ (ingliz tili) bo'yicha nazariy fanlardan ingliz tilida darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va o'zbek-ingliz-rus lingvistik terminlar lug'atini tuzish» nomli amaliy loyiha yo'nalishi doirasida bajarilgan²⁵.

Tadqiqotning maqsadi ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlarning shakllanishi hamda o'zbek tiliga tarjima qilish qiyinchiliklarini chog'ishtirma aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Tilimizga OAV orqali o'zlashgan yangi so'zlarni hali o'zbek tili tizimida muqim o'rnashmagan joylarda qo'llanish sohasini ochib berish va ularning funksiyalarini tarjima nuqtai nazaridan kelib chiqib tasniflash;

neologizmlarning qo'llanish xususiyatlarini tarjima qilish orqali tahlil etish, qiyoslanayotgan tillarda ingliz OAV neologizmlari uslubiy qo'llanishining maqsad va sabablarini tadqiq etish jarayonida OAV neologizmlarining o'zlashayotgan til tizimini boyitib, o'zgartirishini isbotlash;

xalqaro miqyosda qo'llanadigan barqaror atamalar mavjudligi va ular asosida neologik birikmalarining paydo bo'lish sabablarini topish, ingliz OAV

¹⁸Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 104 б.

¹⁹Назаров П.Ж. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар хусусида // Хорижий филология №4, 2019. – 54-58 б.

²⁰Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши. Филол. фан. номз дис. автореф. – Тошкент, 1995. – 12-17 б. яна қаранг: Кодирова Н. Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001гг. (на материале газет и устной речи). Автор. дисс. кан.фил.наук. – Тошкент, 2001

²¹Қўзиёев У.Я. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: Филол фан.фалсафа доктори диссертацияси автореферати. - Фарғона, 2008.

²²Дадабоев Ҳ. Ўзбек тилида аффиксация усули билан ясалган сифат-терминлар // “Ўзбек тилшунослиги: тараққиёти ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2016. – 193-199 б.

²³<https://buxdu.uz/category/26-avtoreferat/>

²⁴lingvistik oliy ta'lim muassasalari talabalarini nemis tilida o'qitishda sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish library.ziyonet.uz

²⁵метафорический перенос в наименованиях беспозвоночных в английском, французском и русском языках <https://elibrary.ru/item.asp?id=20340553>

neologizmlarining funksional-semantik, grammatik va stilistik jihatdan o'xshash bo'lgan va/yoki farqli bo'lgan jihatlarini²⁶ tarjima va chog'ishtirish orqali ochib berish;

«tilda urf»ga aylangan, chetdan o'zlashgan so'zlarning tildagi nufuzini oshirishda, yangilik ta'sir kuchiga ega bo'lgan OAV neologizmlari tarjima qilishdagi qiyinchiliklarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti - zamonaviy ommaviy axborot vositalari orqali tilimizga kirib kelayotgan va o'zlashayotgan neologizmlar: so'z, so'z birikmasi, leksik birliklar, OAV larga oid inglizcha manbalar.

Tadqiqotning predmetini OAV larga oid inglizcha manbalardagi neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keluvchi muammolarni qiyosiy chog'ishtirma aspektida tahlil etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-chog'ishtirma va stilistik, statistik tahlil usullaridan izohli tarjima, kalka usuli, analog usuli kabi tarjima usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz OAV neologizmlarining semantik xususiyatlari, ularning polisemantik hamda sinonimlik munosabatlariga kirishishi asosida axborotlar almashinuvida o'zlashgan yangi so'zlarning o'zbek tili terminologiyasiga moslashishini namoyon etuvchi pragmatik funksional xususiyatlari neologizmlarning o'zga tilga introduksiya jarayonini chog'ishtirish orqali ochib berilgan;

ingliz OAV neologizmlarining grammatik xususiyatlari hamda qiyoslanayotgan tillarda ingliz OAV neologizmlarining uslubiy qo'llanilish omillarini aniqlash orqali OAV neologizmlarining o'zlashayotgan til tizimini boyitish bilan birgalikda tildagi yangi tushunchalarni nominative elementlarni cheklab qo'yish imkoniyati dalillangan;

xalqaro miqyosda qo'llanadigan barqaror atamalar mavjudligi va ular asosida neologik birikmalarning paydo bo'lish sabablari hamda ingliz OAV neologizmlarining funksional-semantik, grammatik va stilistik jihatdan o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash orqali neologizmlarning tarjimada ekvivalentlik, umumlashtirish va adaptatsiya usullari asosida noadekvatlik holatini bartaraf etish uchun xizmat qilishi ochib berilgan;

"tilda urf"²⁷ga aylangan chetdan o'zlashgan so'zlarning milliy til nufuzini oshirish kuchiga ega bo'lgan OAV neologizmlarining tarjimadagi qiyinchiliklarini aniqlash orqali ularni adekvat tarjima qilishda leksik transformatsiyalarni qo'llash samaradorligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ommaviy axborot vositalarining so'z yasash amaliyoti, ularning morfologik tuzilishi va ayni paytda semantik jihatdan turli xil bo'lgan neologizm turlarini farqlash imkoni ochib berilgan;

²⁶ Ingliz va o'zbek tillarida takrorning lingvistik xususiyatlari library.ziyonet.uz/uz/book/download/106083

²⁷ Особенности перевода научно-технических текстов с учетом лингвострановедческого аспекта Ворохобин А.А., Маракушина Г.В. <https://elibrary.ru/item.asp?id=27204655>

tarjimonlarning tarjima amaliyoti tadqiqini qiyosiy-uslubiy asosda o'rganish natijalari va ilmiy xulosalar tarjimashunoslik istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi, yetuk tarjimon va tarjimalar yaratish borasidagi sa'y-harakatlar ko'rsatib berilgan;

sinxron tarjima leksikologiya kabi fanlarni o'qitish va maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkinligi, tarjimaga doir lug'at va glossariylar tuzish, darslik va qo'llanmalar yaratishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlar konseptual maydonining lingvokulturologik jihatdan chog'ishtirma tadqiqi natijalariga doir ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan, ularning yangi so'zlarni konvertatsiya qilishning tizimli mexanizmlarini aniqlashda va ularning asosiy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam berishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda olingan xulosalarning qat'iyligi, ularni dalillovchi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, to'plangan materiallar tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz OAV neologizmlarining matnida semantik, sintaktik va stilistik aspektlarda, chog'ishtirma lingvistika nuqtai nazaridan o'rganilganligi, tadqiqot natijasida shakllantirilgan ilmiy xulosalar hamda fikr va mulohazalar lingvistik sohaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy ta'lim tizimida «Tarjima nazariyasi va amaliyoti», «Nutq madaniyati asoslari», «Stilistika», «Leksikologiya», «Chet tili (ingliz)», «Hozirgi o'zbek tili» kabi fanlar va maxsus kurslarni o'qitishda, dissertatsiya ishlari va monografiyalarni tayyorlashda amaliy manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz OAVdagi neologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilish muammolarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

ingliz OAV neologizmlarining semantik xususiyatlari, ularning polisemantik hamda sinonimlik munosabatlariga kirishishi asosida axborotlar almashinuvida o'zlashgan yangi so'zlarning o'zbek tili terminologiyasiga moslashishini namoyon etuvchi pragmatik funksional xususiyatlariga oid natijardan Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan FZ-201905214 - raqamli amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2021-yil 23.09 dagi 1/4-1-2698-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu amaliy loyiha doirasida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanma yangi ilmiy dalillar bilan boyitilishiga va takomillashishiga xizmat qilgan;

ingliz OAV neologizmlarining grammatik xususiyatlari hamda qiyoslanayotgan tillarda ingliz OAV neologizmlarining uslubiy qo'llanilish

omillarini aniqlash orqali OAV neologizmlarining o'zlashayotgan til tizimini boyitish bilan birgalikda tildagi yangi tushunchalarni nominative elementlarni cheklab qo'yish imkoniyatiga oid xulosalardan Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan "Asal beruvchi daraxt, buta turlari va ularning plantatsiyalarini joylashtirish texnologiyasi" mavzusidagi FZ-2019081675-raqamli amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universitetining 2022-yil 21- maydagi 1/4-1-1509-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu amaliy loyiha doirasida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanma yangi ilmiy dalillar bilan boyitilgan va takomillashtirilgan;

xalqaro miqyosda qo'llanadigan barqaror atamalar mavjudligi va ular asosida neologik birikmalarning paydo bo'lish sabablari hamda ingliz OAV neologizmlarining funksional-semantik, grammatik va stilistik jihatdan o'xshash va farqli xususiyatlariga oid natijardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yozuvchilarining nazmiy va nasriy asarlarini tarjima qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2021-yil 24-sentyabrdagi 01-03/1120-son ma'lumotnomasi). Natijada taklif qilingan tavsiya va xulosalar nazmiy va nasriy asarlarning yangi ilmiy dalillar bilan boyitilishiga va takomillashishiga xizmat qilgan;

"tilda urf"ga aylangan chetdan o'zlashgan so'zlarning milliy til nufuzini oshirish kuchiga ega bo'lgan OAV neologizmlarining tarjimadagi qiyinchiliklarini aniqlash orqali ularni adekvat tarjima qilishga qaratilgan tarjima usullarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Toshkent» teleradiokanalida efirga uzatib kelinayotgan «Gap chiqdi» dasturida 2021-yil 24-iyun soat 9:00 dagi jonli efirda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «Toshkent» teleradiokanalidagi 2021-yil 24-iyuldagi 1-son ma'lumotnomasi). Shuningdek, "tilda urf"ga aylangan chetdan o'zlashgan so'zlarning milliy til nufuzini oshirish kuchiga ega bo'lgan OAV neologizmlarining tarjimadagi qiyinchiliklarini aniqlash orqali ularni adekvat tarjima qilishga qaratilgan tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Mahalla» teleradiokanali DUK «Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar» muharririyati tomonidan tayyorlangan «Ta'lim va taraqqiyot» dasturlarining 2019-yil iyul oyidagi sonlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «Mahalla» teleradiokanalining 2019-yil 25-iyul O'z/R-04-25-1941 son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotning tavsiya va xulosalari muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan va mazkur eshittirishlarning ma'naviy-ma'rifiy hamda badiiy jihatdan ommabopligi va ilmiyligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan²⁸ o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy

²⁸ <https://uzswlu.uz/media/>

natijalarini chop etish²⁹ uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy nashrlarda, 3 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 121 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Neologizm» tushunchasi va uning o'rganilishi**» deb nomlanadi. Ushbu bobda neologizmlarning o'rganilishi va olimlarning neologizmga bergan turlicha ta'riflari mazmuni ochib beriladi. Birinchi bobning birinchi bandi «**Neologizm» tushunchasi va uning tilda paydo bo'lish omillari**» deb nomlangan bo'lib, til tizimiga o'zlashgan va kirib kelayotgan neologizmlarning sohasi va paydo bo'lish omillarini o'rganishga bag'ishlangan. «Neologizmlar bu – tilda mahalliy so'zlashuvchilarning aniq bir qismining faol so'z boyligiga hali kirib kelmagan yangi hodisa sifatida, yangi tushuncha bilan bog'liqlikda yuzaga kelgan so'zlar»³⁰, «yangi yaratilgan so'z yoki ifoda»³¹, deb ta'rif berilgan. OAV kesimida barcha sohadagi yangi kirib kelayotgan atamalarni ko'rib chiqish va tahlil etish imkoniyati tug'iladi. Bundan tashqari, neologizmlarning aksariyati OAVda asosan gazeta va jurnallarda yaratiladi va keyinchalik keng omma tomonidan qo'llana boshlagan. Masalan: *Bigger bang for a buck* – asosan, yadroviy qurol vositalari hisobiga mudofaaga ajratilgan mablag'larning samarali foydalanilishi; *Big lie* – katta yolg'on, soxta tashviqot; *Black hats* – yaramas, muttahaam; *Can carryer* – ishtirok etmagan bo'lsa-da, barcha qilmishlar uchun javobgar bo'lgan inson; *Green power* – pul hokimiyati; *Jane Crow* – ayollarning kamsitilishi; *Larger than life* – aql bovar qilmas, ertakdagidek, bo'rttirilgan; *Log-roller* – siyosiy tirkach; *Man on horseback* – harbiy diktator; *Pot-culture* – giyohvandlarning hayot tarzi; *Put-down* – keskin javob qaytarish; *Trade off* – murosa; *Roll-call* – mavjudligini tekshirish uchun yo'qlama³²³³ kabi. Masalan, so'zlashuvchi yoki yozuvchi muallif tomonidan yaratilgan neologizm individual qo'llanishda qolib ketishi ham

²⁹ <https://uzswlu.uz/media/>

³⁰ Woodhouse Dictionary 1972: 225 p.

³¹ The Oxford Dictionary

³² "The Daily Express", "The Daily Mail", "The Daily Mirror", "The Daily Telegraph", "The Financial Times", "The Guardian", "The Independent", "The Independent on Sunday", "The Sun", "The Sunday Telegraph", "The Sunday Times", "The Times"; magazine "The Economist" and "The Observer".

³³ Translation features of neologisms in the modern vocabulary <http://refleader.ru/jgeujigjgeyfsrna.html> "The Daily Express", "The Daily Mail", "The Daily Mirror", "The Daily Telegraph", "The Financial Times", "The Guardian", "The Independent", "The Independent on Sunday", "The Sun", "The Sunday Telegraph", "The Sunday Times", "The Times"; magazine "The Economist" and "The Observer".

mumkin, boshqalari esa, bu qo'llanishdan keng qo'llanishga o'tib ketadi. Shunga ko'ra, neologizm nutq boyligiga kirish huquqiga ega bo'lishi va nutqni to'ldirib, keng tarqalishi uchun ommaviy nutqda bir qancha vaqt davomida sinovdan o'tishi lozim bo'ladi. Neologizmlarni o'rganish inson hayotida muayyan davrning tarixiy voqealarini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, neologizmlarning paydo bo'lishi til va jamiyatning rivojlanishini ko'rsatadi:

1. Fenomenning, jarayonning yangi nomi paydo bo'lishi tufayli: kompyuter, internet, modem va hk.;

2. Mavjud so'zda yangi ma'noning yuzaga kelishi tufayli. Misol uchun, Rul – masofadan turib boshqarish pulti sifatida.

3. Mavjud obyekt, hodisa yoki jarayon uchun yangi nom paydo bo'lishi tufayli. Masalan, bo'yanish uchun – meypak, lakli soch turmagi uchun – stayling.

4. Mavjudlarga asoslangan yangi so'zlarning paydo bo'lishi tufayli. Misol uchun, flesh xotira moslamasidan fleshka, multimediyadan multimediyaviy.

5. Nomlanishni butun narsa turiga o'tkazish tufayli. Masalan, bolalar tagliklarining barchasi pampers deb nomlanishi.

Eng samarali manba sifatida reklamani aytish mumkin: reklama broshyuralari, radio, televizion reklama xizmati, reklama belgilari, yangi mahsulot yoki xizmatning borligini bildiradi. Ikkinchi muhim manba bu OAV: televideniye (ko'rsatuv, dasturlar, shou), radio. Internet ham alohida manba sifatida xizmat qiladi. Matbuotda tilshunoslik neologizmlarining ko'plab misollari mavjud. «Qashshoqlik chegarasi»³⁴ iborasi neologizmni shakllantirishning ikkinchi usuliga misoldir. Alohida, bu ikki so'z o'z ma'nolarida ishlatilishi mumkin. So'nggi paytlarda, matbuotda bu ibora «xalq farovonligi darajasi» ma'nosida keltirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi bandi «**Tilda neologizmlarning assimilyatsiyasi masalasi**» deb nomlanadi. Ko'p jihatdan, professional soha o'zi leksik iqtisodiyotni amalga oshirish uchun rag'batlantiruvchi rol o'ynaydi; bunday iqtisodiy birliklarning qiymati tegishli mutaxassislar, umumiy kasbiy faoliyat ishtirokchilari uchun kontekstdan tashqarida tushunarli va odatiy hisoblanadi. Neologizmlar asosan jargon va norasmiy so'zlashuvlardan kelib chiqadi va keyinchalik asosiy ma'nosi qolgan holda neologik ma'nosi tez orada nutqdan yo'q bo'lib ketadi. Boshqalari esa ommabop tilda saqlanib nutqda o'rnashadi. O'zbek tilida neologizmlarni til tizimiga ko'ra, qo'llanish sohasi va uning tug'ilayotgan, paydo bo'layotgan markazi tarjimasiz to'g'ridan to'g'ri qo'llashni taqozo etadi. Lekin neologizmning mazmuni va g'oyasini yaxshi anglagan holda qo'llash faollashadi.

Sweat shop – ter to'kib ishlash joyi, *Trouble shooter* – munozaralarni hal etish bo'yicha mutaxassis, *Dark horse* – saylov kampaniyasi davomida kutilmaganda biron lavozimni egallagan inson, *Favorite son* – o'z shtatining yig'ilishida prezidentlikka nomzod sifatida qo'llab quvatlangan inson, *Boondoggling* – hech narsa qilmaslik benaf ishlar qilish, *Hooverize* – Guver bo'yicha yashash, ya'ni iqtisod qilib, yetishmovchilikda yashash, *Pork barrel* – omma orasida tanilish

³⁴Lewis, Oscar (1969). "Culture of Poverty". In Moynihan, Daniel P. On Understanding Poverty: Perspectives from the Social Sciences. New York: Basic Books. p. 199

uchun davlat hisobidan tekinga oziqa berilishi, *Lame duck* – omadi kulmaydigan siyosatchi, *Die hards* – qaysar, fikrini o‘zgartirishi qiyin bo‘lgan odamlar, *Dinosaur wing* – eskicha fikrlaydigan odamlar, *Hide bounds* – tor siyosiy dunyoqarashga ega insonlar.

Yangi so‘zlarning tahliliga ko‘ra, neologizmlar orasida asosiy o‘rinni otlar egallaydi, chunki bu, lug‘at boyliligiga kirib kelayotgan so‘zlarning aksariyati, asosan, joylar va tushunchalarning nomlari ekanligi bilan belgilanadi. Aksar hollarda bu odamlarning nomlari bo‘lishi mumkin: *shareowner* – ulush egasi – *share* – ulush *owner* – ega; *Street fighter* – qat’iy, urushqoq inson; *staff doctor* – Angliya shifoxonalaridagi shifokorlik darajasi; shaxsning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga nom berilishi: *scuzzyball* – amerika jargonida yoqimsiz, jirkanch inson; *shakers* – jasur, boshqalarga gapi o‘tadigan inson, Avstraliyada esa, norasmiy nutqda – yosh, chiroyli erkak. Shu bilan birga, nomning odamga o‘tkazayotgan ta’sirni ham ko‘rsatishi: *shutout* – amerikada omadli bo‘lishdan chetda qoluvchi, ajralib qolgan odam. Shaxsning nomlanishida tana tili ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, ilon deganda, uning harakatlanishi tushinilgan holda “*snake hips*” – jalb etuvchi ozg‘in bo‘ksa, asosan, ayol kishi tanasi bilan bog‘liq yangi neologizmlarning vujudga kelishiga imkon yaratadi³⁵.

Tadbirkorlik va moliya sohasida sezilarli ravishda yangi tushunchalar yuzaga kelishi kuzatiladi. Masalan, *market-maker* – korxonasi ulushlar, qimmatli qog‘ozlar va moliyalarni sotib oluvchi, keyin foyda olish maqsadi bilan sotuvchi odam; *competitor analysis* – raqobatchi korxonalarining moliyaviy va boshqa ishlari yuzasidan ma’lumotlar yig‘ish. Shu bilan birga moliyaviy nutqda quyidagi tushunchalar ham bor, masalan, *silly money* yoki *funny money* – odiy xalq ko‘rmagan katta pul miqdorlari bo‘lib, asosan, tartibsiz, o‘ta qimmat narsalarni olishga pul ishlatish; *ballon financing* – sotuvchining xaridorga narxni belgilangan vaqt davomida oylik to‘lovlarni amalga oshirish orqali to‘lashga imkon berishi va shu bilan birga, qarzning eng katta qismi oxiridagi katta miqdordagi to‘lov bilan amalga oshirishi.

Tarjimashunoslik amaliyotida sezilarli o‘rinni iqtisodiy neologizmlarni yetkazib berish muammosi egallaydi. Nomlarni o‘rganish til va lug‘atning bir qismiga aylanadi. Masalan, *plan* – reja tuzish, *ship* – yuborish. Bu fe’llarning o‘zgarishi qiyin ish emas. Otdan fe’l yasash orqali yangi so‘zlar hosil qilish zamonaviy ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lib, neologizmlar yasalishining manbalaridan biri hisoblanadi. Odatda, mualliflar ot va fe’llarni, turli xillaridan foydalanish orqali, butunlay yangi ma’noni berish uchun qo‘llashadi va bu ma’nolarni lug‘atda topish qiyin va bu yangicha yasalmalarning ma’nolarini faqatgina kontekstda asl ot bilan taqqoslash orqali tushunib olish mumkin.

Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi bandi «**Neologizmlar rivojlanish modeli sifatida**» deb nomlanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ko‘plab mamlakatlar hayotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda, shuningdek, ularni anglatadigan yangi tushunchalarni, yangi so‘zlarni ham kiritishga qodir. Matbuot tili tilshunoslar

³⁵A dictionary of Twitter words submitted by tweeters LOL Acronyms on Twitter [Электронный ресурс] - Режим доступа: <http://twitter.com/lolacronyms>.

jamoatchiligiga va shu tariqa zamonaviy umumiy adabiy tilga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu gazetadan hozirgi paytda dunyo tillarida sodir bo'layotgan tirik jarayonlarni o'rganish uchun material sifatida foydalanish imkonini beradi.

Neologizmning ma'nosini aniqlashtirish asl nusxaning tarjima qilingan birliklari ishlatiladigan kontekstni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Kontekstning umumiy tushunchasi doirasida tor kontekst (mikro-kontekst) ga ajraladi. Tor kontekstda jumlar yoki jumlar kontekstini, ya'ni jumlar ichida ma'lum bir birlik muhitini tashkil etadigan til birliklarini anglaymiz. Keng kontekst deganda, esa, jumlar doirasidan tashqariga chiqadigan ma'lum bir birlikning til muhitini nazarda tutamiz.

L.S.Barxudarovning fikriga ko'ra³⁶ kontekstni sintaktik va leksik kontekstlarga bo'lish mumkin. Sintaktik kontekst – berilgan so'z, ibora yoki nisbiy ibora ishlatiladigan sintaktik tuzilma. Leksik kontekst – bu o'ziga xos leksik birliklar, so'zlar va ushbu birlik paydo bo'lgan muhitdagi barqaror so'z birikmalaridir.

Sintaktik kontekstni hisobga olib, tarjimonga neologizm nutqning qismlaridan biriga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlashga imkon beradi, ammo neologizmning ma'nosini tushinishda leksik kontekstni hisobga olish juda muhimdir. Har bir yangi so'zni tarjima qilish xususiyatlari uning qaysi so'z turi: atamalar, nomlar, o'zbek tilida allaqachon qo'llanishga ega bo'lgan so'zlarning sinonimlari va boshqalarga bog'liq. Biroq neologizmlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zbek tilida ekvivalentga ega emas va tarjima amaliyotida bunday ma'no birinchi marta paydo bo'ladi. Istisno, inglizcha bo'lmagan va ingliz va o'zbek tillarida fuqarolik huquqini olgan neologizmlardir. Bunday neologizmlarni tarjima qilish uchun, odatda, mos o'zbek neologizmlari qo'llanadi: *blitskrig*, *kagulyarlar*, *Vermaxt*, *Kvisling* va boshqalar. Ushbu neologizmlar xalqaro so'zlarning toifasini to'ldiradi. Yangi so'zlarni tarjima qilishda ba'zida turli tarjimonlar turli xil tarjima variantlarini berishadi. Avvaliga yangi tafovut bir-biridan mustaqil ravishda bir nechta tarjimonlar tomonidan bir vaqtning o'zida tarjima qilinganida, bunday nomuvofiqlik muqarrar. Biroq tarjima amaliyoti asta-sekin taklif qilingan variantlarning «tabiiy tanlovi»ni yaratib, oxir-oqibat, eng mos keladigan bittasi tilga kiritiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Ommaviy axborot vositalari neologizmlarining turli matnlarda shakllanish holati**», deb nomlanadi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobi birinchi bandi «**Zamonaviy OAV yuksalishida neologizmlarning aks etishi**» deb nomlangan. Ushbu band barcha fanlar texnikaga doir terminologik ishlarning maqsadi o'sha soha mutaxassislarinigina emas, balki umumiy terminlar vositasida ish ko'rishi, har bir shaxsning bir-biri bilan axborot almashish jarayonini amalga oshirishda rivojlanishini ochib beradi. **Oziq-ovqat** mahsulotlari nomi: *beef steak*, *hamburger*, *yogurt*, *cake*, *ketchup*, *jam*; ichimlik nomlari: *cocktail*, *Coca-Cola*, *Pepsi-Cola*, *rum*, *whiskey*; kiyim-kechak nomlari: *sweater*, *jeans*, *cowboy jacket*, *pajamas*, *raglan*; uy-ro'zg'or buyumlari

³⁶Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) – М., «Международные отношения», 1975.240 с. Б 24

nomi: *mixer, player*; kosmetika va maishiy mavzuga oid: *shaping, shampoo, fan, service* kabilar; o‘rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar: *station, dendro park, drainage, quare, camping, club, college, cottage, motel, bar* (kichik restoran, mayxona), *tunnel, zoo, hall park, Supermarket*; mato nomlari: *belting, tick, rep, chevyot, nylon, covercot* kabilar; transport vositalari nomi: *trolleybus, express, tram, pickup, liner, trailer, tanker*; Fan sohalari, yo‘nalishlar nomi: *logistics, ufology, management* kabilar; dunyoqarash, nazariya va ijtimoiy-siyosiy soha terminlari: *formalism, centrism, trade unionism, dominion, impeachment, lockout, summit, centrist, labor, leader, rally, speaker, charter, boycott*; iqtisodiy soha va savdo-sotiqqa oid: *leasing, export, banknotes, broker, warrant, voucher, grant, dumping, dealer, discount, import, importer, investor, barter, bujet, marketing, manager, holding, clearing, consulting, bartender, businessman, business*; tibbiyot sohasiga oid: *catgut, shock, sinusitis, tracheitis, quinine, stress, drainage*; matbaachilik (noshirlik)ka oid: *press conference, spokesperson, printer, rotaprint*; rasmiy uchrashuv, yig‘in nomi: *briefing*; tashkilot va tashkilot nomlari: *Interpol, trade union, aeroclub, press office, provider*; texnika, texnik vosita va jihoz nomlari: *terminal, car, antifreeze, vulcanization, blooming, nozzle, server, block, stop crane, buffer, nipple*; sport sohasiga oid: *out, outsider, badminton, ping pong, water polo, cycle track, card, go-kart, match, leader, knockdown*; axborot texnologiyalari, telegraf (aloqa tizimi) sohasiga oid: *display, printer, monitor, multimedia, scanner, CD, ticker, hacker, file, diskette, cartridge*; pul birligi nomlari: *dollar, cent, shilling, pound sterling*; hajm-o‘lchov birligi: *barrel*; harbiy ish va harbiy sanoatga oid: *blockade, wedge heel, revolver, sniper*; pedagogika, psixologiya va maorifga oid: *topic, interactive, rating, case, innovation, test, training*; “tarix” faniga oid: *feudalism, centralism*; “fizika” fani va radiotexnikaga oid: *wattmeter, radar, speedometer, transistor*; biologiya, botanika, fiziologiya, geografiya fanlari sohalariga oid: *clone, mimicry, wilt, arboretum, iceberg*; kimyoga oid: *phosphorite, potash, compost, toner, formalin, phosphatlar*; zoologiya: *bulldog, gorilla, gibbon, kangaroo, broiler*; jurnalistika sohasiga oid: *interview, reporting, reporter*; adabiyot, san‘at, musiqaga oid: *thriller, pamphlet, film, producer, filmstrip, pop-music, jazz, clip, recorder, show*; tilshunoslikka oid: *innovation, volapuk*; narsa-buyum nomlari: *safe, scotch, awning, canisters (a), container*; sel-yog‘in nomlari: *typhoon*; jarayon nomlari: *monitoring, filtration, escalation*; o‘quv quroli: *case, flomaster* va h.k.lar neologizm tarzida shakllangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ikkinchi bandi «**OAV neologizmlarning turli matnlarda aks etish masalasi**» deb nomlanadi. Eng muvaffaqiyatli tarjima yechimini tanlash kontekstga qarab belgilanadi. Izohli tarjimaga misollar keltirsak: *To lobby* – parlament a‘zolariga – o‘z saylov okruglari a‘zolariga bosim o‘tkazish uchun o‘z vakillarini yuborish; *Buck-passer* – mas‘uliyatni boshqalarga yuklashni yaxshi ko‘radigan kishi misollarini olishimiz mumkin. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, inglizcha matnlarning neologizmini tarjima qilishda aniqlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: 1. Neologizmning kontekst bilan o‘zaro ta’siri xususiyatlarini, shuningdek, neologizmning turli xil tarkibiy va semantik turlaridan foydalanishning asosiy holatlarini ajratib olish; 2. Neologizmlarni

tarjima qilishning asosiy usullarini yaxshi bilish, shuningdek, ma'lum bir sohaning o'zbekcha terminologiyasi bilan yetarli darajada tanishish, mos keladigan ingliz neologizmining o'zbek tilidagi mos variantini topishga imkon beradi; 3. O'zbekcha ekvivalenti bo'lmagan yoki bizning voqelikda mavjud bo'lmagan muayyan hodisani aks ettiradigan neologizmni tarjima qilish uchun yangi muqobillikning eng maqbul usulini tanlash va undan foydalanish lozim bo'ladi. Garchi neologizmlar semantik aniqlik va mustaqillikka ega bo'lsa-da, neologizmlarning to'g'ri tarjimasi murakkab muammodir. Stilistik neologizmlarga kelsak, ulardan foydalanish va tarjima qilish osonroq, ular allaqachon ma'lum bo'lgan obyektlar va hodisalarning majoziy nomlari sifatida shakllangan. Stilistik neologizmlarda sinonimlar mavjud bo'lib, ular unchalik rangdor ifodalanmagan va tushunarli emas. Shunga qaramay, nutqda bunday neologizmlarning tez-tez ishlatilishi ularni faol so'z birikmalariga aylantiradi va ularning stilistik xususiyatlarini birlashtiradi. Bosma ommaviy axborot vositalari faqat axborot xarakteriga ega va internetdan farqli o'laroq, deyarli o'quvchi bilan aloqa o'rnatmaganligi sababli, muallif ham, tarjimon ham ilmiy-texnikaviy mazmun mohiyati uchun qo'shimcha javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar. Ikkalasi ham ilmiy ma'lumotni uzatish va uni tarjima qilish uchun til vositalarini diqqat bilan tanlashi kerak, shunda muallifning fikri aniq bo'ladi.

Neologizmlarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchilik – bu yangi so'zning ma'nosini idrok etish. Ma'nosi allaqachon tarjimonga ma'lum bo'lgan neologizmning haqiqiy tarjimasi nisbatan sodda vazifa bo'lib, ushbu neologizm so'zlarning qaysi turiga tegishli bo'lishiga qarab, quyidagi usullardan foydalangan holda hal etiladi.

Tarjimada transkripsiyadan foydalanish tarjima tili harflarda imlo shaklida emas, balki inglizcha so'zning tovushini, masalan, *interface* - interfeys, *notebook* - noutbuk kabi yetkazishdir. Zamonaviy tarjima amaliyotidagi yetakchi usul translyatsiya elementlarining ayrimlarini saqlagan holda transkripsiya hisoblanadi. Tillarning fonetik va grafik tizimlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilganligi sababli, chet tilining so'z shaklini tarjima tiliga yetkazish ba'zida shartli va taxminiydir. Har bir juft til uchun so'zning tovush tarkibini manba tilida yetkazish qoidalari ishlab chiqilgan, transliteratsiya elementlarini saqlab qolish holatlari va hozirgi qoidalarda an'anaviy istisnolar ko'rsatilgan. Inglizcha-o'zbekcha tarjimalarda transkripsiyalashda eng ko'p uchraydigan transliteratsiya elementlari, asosan, ba'zi tushunarsiz undosh tovushlarni va qisqartirilgan unilarni transliteratsiyasi hisoblanadi (*Dorset* – dorset, *Campbell* – kembel). Unli va unli tovushlardan keyin so'zlarning oxirida qo'sh undoshlarning uzatilishi (*Bonnors Ferry* – boners ferri, *boss* – boss, *Shurchill* – Cherchil) va tarjimada so'z tovushini allaqachon ma'lum bo'lgan xususiyatlarga moslashtirishga imkon beradigan so'zning imlo xususiyatlarining saqlanishi (*Hurcules missile* – raketa «Gerkules», *deescalation* - deescalatsiya, *columbia* - kolambiya) kabilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Ingliz ommaviy axborot vositalaridagi neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammosi**» deb nomlanib, asosan, neologizmlar tarjimasi muammolariga bag'ishlangan va uning birinchi bandi

«Neologizmlarning o‘zbek tiliga tarjimasidagi muammolar» deb nomlanadi. Globallashtirish jarayonlari, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, dunyo ilm-fanining so‘nggi yutuqlari, kundalik hayotda kompyuterlardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘plab neologizmlar vujudga kelgan. Tele- qisqartirilgan shakl yordamida shakllangan: *telepost* – «uydagi kompyuter joylashgan joy», *telework*, *to telecommute* – «ishlab chiqarish bilan kompyuter aloqasi mavjud holda uyda ishlash», *tebanking* – «mijozga televizor yoki uy kompyuteri orqali bank operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beradigan moliyaviy xizmat», *telemarketing* – «telefon orqali savdo amaliyoti», *teleshopping* – «telefon orqali sotib olish buyurtmasi» (oxirgi ikki holatda xarajatlarni va bank bilan aloqalarni kompyuterda aniqlash mavjud) kabi mazmunlarni qamrab oladiki, boshqa turdagi leksik birliklar ham ushbu leksik maydonda ishlatiladi, masalan: *dial-a-taxi* – «telefon orqali taksi buyurtmasi», *dial-meal* – «telefon orqali ovqatga buyurtma berish» va hk.

